O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

M.Ulug`bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura qurilish institute

“Arxitektura” fakulteti

“Dizayn” kafedrasi

Bitiruv malakaviy ishining

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu:”Beymen” firmasi binosini mini bank uchun rekonstruksiya yechimi

Diplomant: Salixova Nigina.

Rahbar: Mirzayev Sh.

Maslahatchi: Tugizov Sh.

“Dizayn”kafedrasi mudiri Tugizov Sh.

Samarqand-2012

Mundarija

1.Kirish…….…….1-9

2.Arxitekturaviy rejalashtirish qismi…….10-28

Qism bo`yicha xulosa……...27-28

3.Badiiy qism……29-55

Qism bo`yicha xulosa……54-55

4. Konstruktiv qism……..56-66

Qism bo`yicha xulosa……....66

5. Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi…….……...67-76

Qism bo`yicha xulosa……....76

6. Ekologiya qismi……77-84

Qism bo`yicha xulosa……....84

7. Xulosa……85-86

8. Adabiyotlar ro`yxati……..87

Kirish

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishidan avval shahar va qishloqlarda turar joy va jamoat binolari qurilishi bir xil ko`rinishda oddiy va sodada, murakkab va badiiy elementlarsiz davlat qurilish komiteti tomonidan belgilab qo`yilgan standart asosida qurilgan. Umumiy bino maydoni katta bo`lmagan, ma`lum miyorlarga asoslangan tipovoy binolar qurilgan.

Tipovoy loyihalarda arxitekturaning milliy an`analari hisobga olinmagan, balki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi zavodlarning mahsulotlariga asoslanib, hamda qurilayotgan inshootni narxini kamaytirishga harakat qilingan. Bu barchasi shahar va qishloqlardagi binolarning deyarli bir xilda qurilishiga olib kelgan. Hatto turar joy binolariga umumiy maydoni chegaralangan tipovoy loyihalar ishlab chiqilgan.

Mustaqillik yillari davomida esa, iqtisodning hamma sohalaridagi rivoj natijasida Toshkent shahri davlatimiz poytaxtining ham arxitekturaviy ko`rinishi sezilarli darajada o`zgardi.

Me`morlarning imkoniyatlariga keng yo`l ochildi va bu imkoniyatlar shahar qurilishi loyihalari, aholi punktlarini loyihalashning har bir sohasida amal qilina boshladi.

Maxsus loyihalar asosida juda ham ko`rkam davlat miqyosidagi inshoatlar qurildi . Masalan, Oliy Majlis, Temuriylar muzeyi, Oqsaroy, Muqumiy nomidagi milliy teatr, O`zbekiston Respublikasi Milliy Banki, Asaka banki, Anjumanlar saroyi, San`at Gallreyasi, A.Navoiy nomidagi kutubxona, Konservatoriya bir qator sog`liqni saqlash binolari, sport muassasalari, savdo-sotiq inshootlari va bozorlar, umumiy ovqatlanish majmualari kabi binolar bunda misol bo`la oladi.

Yana shuni aytib o`tish joizki, mustaqillik yillarida prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimovning tashabbuslari bilan viloyatlardagi me`moriy-obidalar, yodgorliklar ham qayta tiklab yangilandi.

Shahar, qishloq qurilishi, ko`priklar, turli madaniy-ma`rifiy maskanlar, o`quv binolari qurilishiga katta e`tabor berildi.

Bu esa o`z navbatida me`morlarning chegaralanmagan va boy imkoniyatlarini namoyon etishga zamin yaratdi desak mubolag`a bo`lmaydi.

O`zbekiston bank tizimining rivojlanishi mamlakat iqtisodida tub o`zgarishlar yuz berishiga, shuningdek, jahon bank tizimidagi qayta qurishlarga bo`liqdir. Banklar mamlakatimiz iqtisodiyotiga va respublikamizning jahon hamjamiyatiga kirib borishida muhim rol o`ynaydi.

Investorlar va tadbirkorlarimizning dunyo miqyosida biznes qilishlari uchun xalqaro aloqalar olib boradigan banklar yetarli bo`lishi kerak. Shuningdek, mamlakatda biznesga va sarmoya kelib-ketib turishiga yordam beradigan xorijiy banklar filiallari va vakolatxonalari bo`lishi ham juda muhimdir.

Mamlakatimizning yosh, ammo istiqbolli banklari jahondagi eng yirik banklar bilan hamkorlik qilmoqda . Bu respublikamiz bank tizimining o`ziga xos xususiyatlaridan biridir.

“Kredit sviss”, “Doyche bank”, “Berlimer bank”, “Sosete jeneral”, “Cheyz Manxetten” singari mashhur banklarning nomini, albatta, ko`pchilik yaxshi biladi. Ularning vakolatxonalari bir necha yildan beri O`zbekistonda ishlab turibdi.

Banklarda texnikaviy xizmat ko`rsatish darajasi va xodimlar malakasi yuqori bo`lishi kerak. Ular faoliyati davlatimizda ijobiy o`zgarishlar yuz berayotganini ko`rsatib turibdi.

Agarda bank o`z mijozlari va uning pul mablag`lari to`g`risidagi ma`lumotlarni sir saqlasa va ularning manfaati himoyalansa hamda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatini ko`rsatsa, aholining banklarga bo`lgan ishonchi oshadi.

Aksiyadorlik-tijorat “Paxtabank” 1995-yil avgust oyida O`zbekiston Respublikasi Dehqonsanoat banki zaminida Tashkil etilgan bo`lib, hozirgi kunda u respublikamizning eng nufuzli va yirik, universal tijorat banklaridan biridir.

2002-yil 1-yanvar holatiga “Paxtabank” tarkibida 13 ta viloyat boshqarmasi, 184 ta shahar va tuman filiali hamda 98 ta minibank mavjud bo`lib, tizimda 7

mingga yaqin xodim samarali mehnat qilib kelmoqda. Bank ustav kapitali 10 mlrd sumda, aksiyadorlar soni esa 70 mingga yetadi. Bank 210 mingga yaqin mijozga yuqori sifatli zamonaviy bank xizmatlari ko`rsatib kelmoqda.

Bank tizimi keyingi yillarda har tomonlama rivojlandi, iqtisodiy salohiyati keskin o`sdi, mijozlarga moliyaviy va kredit xizmati ko`rsatish sifati davr talabi darajasiga ko`tarildi. Bank xizmatining bir qator yangi, zamonaviy,yanada samarali usullari joriy etildi, kredit berish va hisob-kitob qilish tamoyillari bozor munosabatlari talablariga mos tarzda takomillashtirildi.

2012-yilning 1-yanvaridagi holati, respublikamizda 30 ta tijorat banki faoliyat ko`rsatib, ularning 3 tasi davlat tijorat banki, 13 tasi aksiyadorlik tijorat banki, 9 tasi xususiy bank va 5 tasi chet el kapitali ishtirokidagi bank hisoblanadi. Ularning 822 ta filiali tomonidan respublikamizning barcha hududlarida mijozlarga bank xizmatlari ko`rsatib kelinmoqda. Bank muassasalari tarmog`ining kengayib borayotgani banklar o`rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi va bank xizmat turlari sifati va ko`lamining oshib borishiga imkon berdi.

O`zbekiston Respublikasining prezidenti Islom Karimov shunday deganlar: Shuni mamnuniyat bilan ta`kidlash kerakki, “Standart end Purs”, “Mudis” va “Fitch Reytings” kabi nufuzli xalqaro reyting agentliklari 2 yildan buyon O`zbekiston bank tizimiga muttanosil ravishda “barqaror” reyting darajasini bermoqda, ayni paytda mamlakatimizning shunday bahoga sazovor bo`lgan banklari soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Ma`lumki, aholining bank tizimiga ishonchi ortib borayotgani banklar faoliyati samaradorligining muhim ko`rsatkichi hisoblanadi. Shu ma`noda, 2011-yilda depozitlarga 18 trillion so`mdan ortiq, o`tgan yilga nisbatan 36,3 foiz ko`p mablag` jalb qilingani, jumladan, aholi depozitlari 38,8 foizga oshgani ayniqsa e`tiborlidir.

Bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko`rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tashkil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi.

Samarqand shahri ko`chalari va maydonlari mustaqillik yillarida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari tufayli aynan ana shunday tushunarli, shaklan insonga uyg`un fuqaroviy me`moriy muhitga aylantirilmoqda. Misol uchun birgina Mustaqillik ko`chasini olaylik. U butkul yangitdan qayta qurildi, ko`cha kengaytirildi, tekislandi, ko`kalamzorlashtirildi va muhandisona obodonlashtirildi. Uning arxitekturasi esa, o`zining dastlabki tarixiy muhitiga mos tarzda qayta tiklanib yanada fuqaroviylashdi. Bu ishlarni bajarishda Prezidentimizning Samarqandga tashrifi va shaxsiy tashabbusi katta ahamiyat kasb etdi.

ARXITEKTURAVIY
REJALASHTIRISH QISMI

Bank binolarining funksional zonalarga bo`linishi, guruhlanishi va xonalarning o`zaro bog`liqligi.

Respublika mustaqilligidan so`ng, o`tgan qisqa o`n ikki yil ichida bank sohasi rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratildi, tijorat banklarining faoliyati ushbu qisqa davrda kutilgandan ham unumliroq tarzda takomillashdi. Tijorat banklarning takomillashishiga sabab, O`zbekiston Respublikasining jahon xo`jaligidagi ishtiroki salmog`i oshib, xalqaro iqtisodiy munosabatlar ko`lami kengayib borayotganidadir. Bu borada banklarning o`rni barchamizga ma`lum.

Tijorat banklari binolari funksional tamoyillariga qarab ikki yiriklashgan blok-operatsion kassa bloki hamda axborot va ma`lumotlarni qayta ishlash xonalari ofis va yordamchi xonalar, shuningdek qo`riqlash va xavfsizlik xizmati xonalaridan tashkil topgan bloklarga ajratish mumkin.

Bank binosida operatsion–kassa bloki asosiy funksional halqa bo`lib, bino umumiy hajmining 70 foizini tashkil etadi.

Uning tarkibi:

a) kassa tugunlari
b) kassa va operatsion zallar yoki yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko`rsatuvchi operatsion kassa zali .

d) mijozlar va xizmat ko`rsatuvchi maxsus xonalar guruhi (valuta, ayirboshlash, bankomatlar, avtomatik, xizmat qilishga mo`ljallangan kechki seyflar).

Ma`muriy xonalar –bank rahbariyati xonalari va qobulxonalari, bo`limlar xonalari, buxgalteriya va hokazolardan tashkil topadi.

Bu guruhga yordamchi va xizmat ko`rsatishga mo`ljallangan(yig`ilishlar va muzokoralar xonalari, hujjatlarni qayta ishlash va saqlash xonalari, umumiy ovqatlanish joylari va boshqa xonalar tutashadi).

Qo`riqlash va xavfsizlik xizmati xonalari mustaqil hisoblanadi. Tijorat bankining xavfsizligi deganda, bank egalari, rahbariyati va mijozlari manfaatlari, moddiy boyliklar va axborot resurslarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati tushuniladi.

Bank xonalarida harakatlana olishi jihatidan quyidagicha guruhlanadi.

1-Odamlar erkin kira olishi mumkin bo`lgan xonalar ya`ni vestibyul, kutish joylari, kassa va operatsion zallar (yoki operatsion kassa zallari), mijozlarga xizmat ko`rsatuvchi maxsus xonalar.

2-mijozlar harakati cheklangan yoki nazorat orqali o`tish mumkin bo`lgan xonalar depozitlar-xodimlar, ma`lumotlar xonalari va ma`muriy xonalar.

Banklar . Umumiy ma`lumotlar .

Bank binolariga qo`yiladigan talablar xilma-xil bo`lib, bank turiga bog`liq buladi.(xususiy tijorat banklari, yirik banklar, keng omonatlilar kontingenti va katta moliya operatsiyalari hajmiga ega omonat kassalari, ipoteka banklari, davlat tasarrufidagi banklar)

Odatda, banklarda hamisha mijozlar to`lovi yoki pul olishi bilan bog`liq operatsiyalar amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar naqd yoki pul ko`chirish yo`li bilan bajariladi.Ushbu operatsiyalarning barchasi tez, aniq va shu bilan birga oddiy bajarilishi lozim . Shu maqsadda qo`llaniladigan mexanik yuklanadigan jihozlar yirik bank muassasalarida zarur va yetarli darajada tejamli hisoblanadi.

Mijozlar tashqaridan vestubyul orqali operatsion zalda, kutish zaliga, omonat kassalariga harakatlanadi. Bundan tashqari qimmatbaho qog`ozlar bilan ishlash

bo`limi, omonat kassalari va kommunal to`lovlarini qabul qilish bo`limlari joylashishi zarur.

Bu bo`limlar bajarilgan pul operatsiyalarini qayd etuvchi va tekshirib turuvchi buxgalterlar va hisobchilar ish o`rni hamda mijozlar hisoblari haqida ma`lumotnomalar, to`lov cheklari beriladigan joylar bilan birga rejalashtirilishi kerak.

Bankning boshqa ishchi xonalari (boshqaruvchi xonasi, kredit bo`limlari va inspeksiyalar) odatda operatsion zal bilan bog`lanadi.

Bank seyflariga yo`l operatsion yo`l (zal) orqali (qulflanuvchi eshik) o`tiladi. Shu yerda po`lat panjaralar ortida mijozlar uchun xoll kabinalar bilan birgalikda (kabina o`lchami 1 kishiga 1*1.5 m dan 1.5*1.5m, 2 kishiga 2*1.5 m) seeflar xonasiga kirish yo`li rejalashtiriladi.Yirik banklarda seeflar xonasi odatda ikki bo`limga bankning shaxsiy qo`yilmalari va mijozlar qo`yilmalari, bo`linmalariga bo`linadi.

Banklar arxitekturasi

Banklarni odatda turar-joy binolarining birinchi va ikkinchi qavatida, binolarga qo`shimcha qurilgan binolarda tovushdan himoya ta`minlangan holda, alohida kirish qismi rejalashtirilib joylashtirishga ruxsat beriladi.

Banklarni quyidagi korxonalar bilan bir binoda joylashtirishiga ruxsat berilmaydi.

-sanoat ishlab chiqarish korxonalari yuqori darajada shovqinli ishlab chiqarish joyi (jarayoni)

-maktab, bolalar uyi, internat va statsionar davolash muassasalari yotoqxonalari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasalari.

Kompleks yoki boshqa sohaga mo`ljallangan korxonalar bilan va binoda joylashgan banklar avtriem funksiyali yoki izolyatsiyalangan rejaviy yechimga ega bo`lishlari talab etiladi. Bunda bank xonalari tovush izoliyatsiyali, yong`inga qarshi devorlar va tom ora yonmalar bilan ajratilishi kerak.

Yangi qo`riqlayotgan bank binolarida xonalar balandligi poldan shiftgacha 3.3 m, osma shiftlar o`rnatiladigan hollarda 2.8 m kam bo`lmasligi lozim.

Operatsion va kassa zallari bundan mustasno . Mavjud binolardan foydalanilganda ularning o`lchamlaridan kelib chiqib olinadi, lekin sof balandlik 2.5 m kam bo`lmasligi kerak. Operatsion va kassa zallari balandligi loyiha topshiruvchi yoki loyihada aniqlab beriladi. Koridorlar balandligi 2.4 m dan kam bo`lmasligi, koridor kengligi yangi qurilishlarda 1.4 m rekonstruksiya holatida 1.2 m dan kam bo`lmasligi talab etiladi.

Qavatlar sonidan qatiy nazar bank binolarida qimmatli vontalarni yuklash uchun kassa tugunida joylashtirish, nogironlarga qulay muhit yaratish maqsadida kirish zalida joylashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi. Lift kabinalari og`irlik ko`tarish qobiliyati texnologik topshiriq nuqtai-nazaridan aniqlanadi.

Tijorat banklari xonalari qurish chegaralanganligi jihatidan 3 ta asosiy zonaga bo`linadi .

1. Ularga kirish xodimlar va mijozlar kirish chegaralanmagan.
2. Kirish ma`lum doiradagi xodimlarga ruxsat etiladi.
3. O`rnatilgan qattiq tartibdagi bankning mansabdor shaxslariga ruxsat beriladi.

Kassa zali kutish zali va hisob –kitob xonasini o`z ichiga oladi. Kutish zali maydoni 1 operatsion kassa kabinasiga 8m kam bo`lmasligi, yangi qurilishlarda ko`zda tutilsa, rekonstruksiya qilinayotgan binolarda 6 m² kam bo`lmasligi lozim. Hisob-kitob xonasi maydoni 1operatsion kabinaga 2.5m² hisobidan olinib, umumiy maydoni hamda 6m² teng bo`lishi kerak.

Qimmatbaho vositalar omborxonalari maydoni tijorat banklarida 10m² dan kam bo`lmasligi (yangi qurilishlarda) va 8m² ga teng bo`lishi rekonstruksiya xolatlarida olinadi.Omborxonalar balandligi 2.4 m (yangi qurilishlarda), 2.2m dan kam bo`lmasligini talab etiladi.

Bank ishlari avtomatik xizmati xonalar maydoni bir ishchi o`ringa teng keladigan maydonga nisbatan olinadi.

-EHM operatori -5m²

-dasturchi -6m²

-texnik xizmat ko`rsatish va tuzatish xodimlari -6m²

Server kompyuterlar xonalari maydoni servis zonasi hisobi hamda qo`llaniladigan jihozlar texnik va ishlatilish xarakteristikasiga qarab yangi qurilishlarda 12m² kam bo`lmasligi, rekonstruksiya qilinayotgan binolarda 6m² kam bo`lmasligi talab qilinadi.

Boshqaruvchilar kabineti va qabul xonalari tijorat banklarida muassasa xodimlari tarkibiga qarab quyidagicha taqsimlanadi.

1-jadval.

T/r	Xonalar nomlanishi	Bank xodimlari soni		
		20 kishigacha	20-100 kishi	100 dan ortiq
		m²	m²	m²
1	Boshqaruvchi xonasi	18	24	36
2	Qabulxona	9	12	18
3	Boshqaruvchi o`rinbosari xonasi	12	15	24

2-jadval

T/r	Xonalar nomlanishi	100 kishiga	100-300 kishigacha	500 kishiga	500 dan ortiq
1	Bank rahbari xonasi	30	36	48	54
2	Bosh urinbosar xonasi	18	20	24	36
3	Qabulxona	12	16	18	24
4	Bosh boshqaruvchi xonasi	16	18	24	24

Yig`ilishlar zali uchun garderoblar maydoni 0.2m² hisobidan har bir o`ringa mo`ljallanadi. Xodimlar uchun operatsion xonalar maydoni garderob bilan birgalikda har bir operatsion o`ringa:

-operatsion o`rinlar 20 tagacha 1.5m²

-operatsion o`rinlar 20 va undan ortiq bo`lganda 1.2m² qilib tavsiya etiladi.

Operatsion blok kirish xonalari guruhi operatsion zal va kassani o`z ichiga oladi.Kirish xonalari guruhi vestibyul, mijozlar o`z-o`ziga xizmat ko`rsatish xonalari, o`tish joylaridan tashkil topgan bo`ladi.

Vestibyul maydoni operatsion o`rinlar soniga bog`liq bo`ladi.

-operatsion o`rinlar 20 tagacha bo`lganda 24m² dan kam bo`lmasligi.

-operatsion o`rinlar 20 tadan ortiq bo`lganda 36m² dan kam bo`lmasliga lozim.

Sanitar tugunlar erkaklar va ayollar uchun har qavatda joylashtirish maqsadga muvofiq. Sanitar tugunlar uzoqligi ishchi xonalardan maksimum 45m dan oshmasligi zarur.

Dush kabinalari operatsion zal xodimlari soniga 1/10 nisbatda olinib, bir kabina maydoni 3m² teng olinadi.

Xizmat ko`rsatishga mo`ljallangan va yordamchi xonalar maydoni xodimlar soniga qarab quyidagicha bo`ladi:

3-jadval

T/r	Xonalar nomlanishi	Xodimlar soni		
		20 tagacha	20-50 tagacha	50-100 tagacha
		Maydon		
		M²	M²	M²
1	Moliya hujjatlari arxivi	18	24	36
2	Ish yuritish arxivi	8	12	18
3	Blanklar ombori	6	9	12
4	Muzokora va yig`ilishlar xonasi	24	36	54
5	Idora ashyolari ombori	6	9	12
6	Xo`jalik asboblari ombori	9	12	18
7	Xizmatchi xodimlar xonasi	9	9	12

Xulosa qilib aytganda, Arxitekturaviy obrazlar kapital qurilish sohasida moddiylashadi . Mamlakat arxitektorlarga katta moddiy resurslarni ijodiy mehnat potensialini ishonib topshiradi. Bu esa arxitektordan xalq ne`matini muhofaza qilishni hamda ratsional vositalar orqali yuksak ijodiy natijalarga erishishni talab etadi.

Arxitekturaning mohiyati ijodiy, estetik badiiy faoliyatiyat bo`lib, arxitektorning konstruktiv texnik va texnologik masalalarini yechish asosiy maqsad hisoblanadi. Arxitektura va iqtisodning o`zaro mahsuldor munosabati iqtisodiy strategik vazifalarini hal etishda katta rol o`ynaydi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar faoliyatini o`rganish, tahlil qilish, baholash yuzasidan zarul axborotni juda katta hajmda qabul qilib ularni matematik modellashtirish, omili tahlil qilish va optimal qaror qabul qilish borasida yanada ko`proq e`tibor berish kerak. Agar shularga e`tibor bersak, mustaqil davlatimiz iqtisodiy barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Badiiy qism

Bank interyerlari dizayni

Bank inter`yerlari dizayn yechimi ofis binolarini loyihalash ishlarining eng murakkab turlaridan biri hisoblanadi .Alohida joylashgan bank binosini, turar joy binosi birinchi qavatida joylashadimi, yirik bank binosi bo`ladimi bundan qatiy nazar bank dizayn loyihasi pardozlash materiallari va tuzatish ishlari sifatida qo`yiladigan talab juda yuqori. Bank ishlarini tashkil etish spetsifikasi ma`lum shart-sharoitni talab etadi. Shu sababli bank interyeri dizayni loyihasi va banklarni tuzatish ishlari ko`p mehnat talab etuvchi va yuqori baholanuvchi jarayon hisoblanadi. Qadimiy baquvvat marmar raboq va ustunli binolar, muzeylar ko`rinishini eslatadi. Bank binosiga ish yuzasidan inson uchun asrlar bog`liqligini his etish zarur emas. Bank dizayni loyihasini tog`ri tuzish bilan bu hissiyotlarni sezilarli darajada kuchaytirish mumkin. Bu omil barcha bank-moliya tizimi uchun zarur hisoblanadi. Bankka tashrif buyurgan mijaz o`zini ishonchli his etishi kerak.

Dizayn loyihasini ishlash bosqichlarida bank xonalari vazifasini aniqlab olish zarur. Barcha xonalar operatsiyalar zali, xazinalar, bankomat zonalari,

omborxonalar, muzokora xonalari,qo`riqlash xonalari, mufassal va yaxshi o`ylangan ishlanmalarni talab etadi. Har bir xonalar uchun yuqori himoya va xavfsizlik talablari, qulaylik va erganomik talablar qo`yiladi. Har qanday holatda ham moliya ishlari ishonchli himoya sharoitida amalga oshorilishi kerak. Shu sababli loyihalashda ichki va tashqi video kuzatuvchi ishlanmalar, xabar berish tuzilmalari, bank xonalarida avtomatlashgan tizimlar orqali kirish ko`zda tutiladi.

Xonalar interyerlarni yaratishda xavfsizlik choralaridan tashqari bankning shaxsiy uslubi ham hisobga olishi zarur.

Pardozlash ishlarida o`ta yuqori sifatli va esga kirmaydigan ko`rinish materiallari ya`ni granit , marmar , zichli oynalar va metal konstruksiyalar tavsiya etiladi. Bu materiallarning inter`yerda qo`llanilishi nafaqat xavfsizlik uchun xizmat qiladi, balki ushbu moliya korxonasining ishonchligi va himoyalanganlik hisini oshiradi. Mijozlar va sheriklarda barqarorlik va kamfortlilik hisini paydo qilish uchun qishki bog`lar, favvoralar, dizayn yoritish moslamalari, jihozlar va shu kabilar muhim ahamiyatga ega.

“Ishchi inter`yer” dizayni

Har qanday ofis inter`yeri deganda –hujjatlar va qog`ozlar bilan faoliyat yuritiladigan, zamonaviy jihozlar va xodimlar kamfort ish sharoiti bilan ta`minlangan ish joyi tushuniladi. Ba`zi bir inter`yerlar misol uchun bank binolari inter`yerlari hoh aholiga maslahat berish yoki yetuk biznes vakillari, VIP mijozlar bilan muzokara olib boriladimi bular 1 ta maqsadga mijozlar bilan ishlashga mo`ljallangan bo`lishi zarur. Shuning uchun “ishchi inter`yer” lar dizayn masalalarini yechishda 3 ta asosiy masalalarni hal qilish talab etiladi. Birinchidan bino funksionalligi yetarli darajada bo`lishligi: ikkinchidan mijozlar bilan ishlashning qulayligi : uchunchidan esa xodimlar uchun kamfort ish sharoitlarini yaratilganligi ko`zda tutiladi.

“Ishchi inter`yer” ning uslubi u markaziy ofis binosi yoki bo`limi bo`lishidan qatiy nazar bosh kompaniya standartlariga mos keladigan yagona dizayn yechimiga ega. Bu yechimlar bino inter`yeri rang yechimlari, logatip va

reklama lavhalarida o`z ifodasini aks etadi. Kompaniya imidji kirish gurihidan boshlab shakllanadi.

Kirish guruhining asosiy vazifasi mijozlar etiborini tezlikda o`ziga jalb etish, biroq bundan tashqari kirish qismi muhim funksional vazifani ham bajaradi. Agar mijozlar son jihatidan ko`p bo`lsa, konstruksiyalarga mustahkamlik bo`yicha kuchli talab qo`yiladi. Bundan tashqari kirish guruhi tashrif buyuruvchilarni har xil tabiiy xodisalar (qor, yomg`ir) dan himoya qilishi zarur.

Kirish guruhlari uchun konstruktiv material sifatida odatda alyumin profil qo`llaniladi.Yong`in, temperatura , o`garishlariga, shuningdek mustahkamlik va yengillik xususiyati bilan alyumin profillar xilma-xil dizayndagi kirish konstruksiyalari yaratish uchun nihoyatda gulash material hisoblanadi.

Korxona xodimlari uchun konfort

Ma`lumki, o`rtacha o`tkazuvchanlikka ega ofis binolari pollari uchun yumshoq to`shalma qoplamalar qo`llaniladi. Bu faqat vizial komfort hosil qilib qolmaydi, balki ofis texnikasi shovqinli ham bir qadar kamaytirishga xizmat qiladi. Mas`uliyatli operatsiyalarni bajaruvchi xodimlar uchun shovqin, yelvizak va shu kabi g`ashiga tegadigan diskamfort holatini istesno qiladigan, optimal sharoitlar yaratilishi zarur. Ayniqsa mebellarga muhim talablar quyiladi: ular maxsus ergonomic forma va o`lchamlarga ega bo`lishligi, shuningdek xodimlar charchoq holatini kamaytiradigan va ular harakati samaradorligini oshirish imkonini beradigan turli regilirofkalarga ega bo`lishliga.

Kabinetli xonalarni ajratishda stasional g`ov (peregorotka) lar : muvaffaqiyatli qo`llanilmoqda. Ular rahbarlar va bo`limlar uchun alohida muhit yaratish imkonini bermoqda. Ko`pincha dizaynerlar tomonidan yopiq va yarim yopiq g`ovlar qo`llaniladi. Bu yechimlar binoda havoning tabiiy almashinuvini ta`minlab, konditsionerlar uchun elektr energiyasi sarfining kamayishiga imkon yaratadi. Osma g`ovlar va yuqori sifatli daraxt navlaridan tayyorlanib bezatilgan g`ovlar xona individual obrasini, uning eksklyuzivligi va ular ulug`vorligini ko`rsatishga mo`ljallangan yuqori darajadagi rahbarlar kabinetlarini tashkil etishda keng qo`llanilmoqda . Biroq faqatgina xona individialligigagina emas, balki uning to`liq

tovush izoliyatsiyasi talablariga javob berishi ham muhimdir. Ma`lumot maxfiyligi barcha jiddiy biznes muhim shartlaridan hisoblanadi.Bu shartlar ya`ni xona ichidagi qulay akustik muhitni yaratadigan va inter`yer originalligini saqlab qoladigan tovush izoliyatsiyali g`ovlar yordamida hal etiladi. “ “Ichki dizayn” inter`yerini yaratishda e`tiborni asosiy talabalarga rioya qilishga qaratish zarur. Avvalo, “dizayn-komfort” optimal mutanosibligiga ya`ni kompaniya mijozlari va xodimlari uchun effektiv sharoit yaratishga qaratilmog`i kerak. Ikkinchidan , arxitekturaviy yechimlar estetik va amaliy tomonlarini bir-biriga moslashtirish va har bir xonaning funksional talablariga javob berishi lozim. Nihoyat,kompaniya rivoji kelajagini hisobga olgan holda original firma uslubiy yaratish hisoblanadi.

Har bir buyurtmachi uchun bank inter`yerlarda mijozlar va kelib ketuvchilarga komfort yaratishi birinchi darajali vazifa hisoblanadi.

Bank inter`yerlari loyihalarini ishlab chiqishga foydalaniladigan maydonning 2 zonada bo`linishi tavsiya etiladi: front offisi va back office.

Front office yoki ko`pincha uni open space-ya`ni mijozlarga bevosita xizmat ko`rsatadigan jarayon amalga oshiriladigan joy. Shu nuqtai nazardan ushbu xona bo`shliq va tiqislikni muvofiqlashtiruvchi keng ko`rinishida bo`lishi lozim.

Front office demakratik ya`ni yetarli darajada kattalikdagi xonada kapital devorlarsiz, turli tipdagi ofis g`ovlari qo`llanilgan, ma`lumotlar lavhasi va kassa tuguni, yumshoq mebel bilan jihozlangan qo`shni xonalariga ega ko`rinishni namoyon etadi. Bu muhit osonlik bilan stansionar g`ovlar yordamida ajratilgan bank operatsion xodimlari uchun ish joylari tashkil etish mumkin.Shuningdek mebel g`ovlar ham keng qo`llanilmoqda. Ular yordamida juda qisqa muhlatlarda zonalar tashkil etish, xonalar konfiguratsiyasini tashkil etishida ya`ni tashqi mutaxassislar yordamisiz o`zgartirish mumkin bo`ladi.

Back office-bankining ichki ishchi zonasi bo`lib, bank rahbarlari va xodimlari xonalaridan tashkil topadi.U ham o`z navbatida 2 qismga: Shaxsiy xonalar va maxsus xonalarga (hujjatlarni saqlash xonalari) pul mablag`lari va boshqa qimmatli vositalar saqlash joylari.

Hujjatlarni saqlash va boshqa qimmatli vositalarni saqlashga mo`ljallangan maxsus xonalar, depozitariyalar yoki seyflar –save zonalarga yuqori xavfsizlik talablari qo`yiladi . Shu o`rinda dizayner faktori xususiyatlari biroz chekinib, konstruksiya mustahkamligi va yong`in xavfsizligini ta`minlash 1-o`ringa chiqadi. Bu muammolarni yong`inga yuqori darajali issiqlikka chidamli va germetik, shuningdek massiv eshiklarni qo`llash bilan hal etish mumkin.

"Yashil ofis" probasi zamonaviy kompaniyalar lug`atiga kiritilganligiga ancha bo`ladi. Ba`zilar shu bilan ijtimoiy holatini namoish etadi, ba`zilari esa yashil inter`yerlar yaratmoqda, boshqa birovlar ekologik toza yechimlarni keng qo`llashni targ`ib etmoqda.

Hozirda "yashil" mavzu xususiy va ofis mebeli sanoatida, shuningdek nur dizayn (svetadizayn) i ham qo`llanilmoqda . Xalqaro miqqiyosdagi dizaynerlar "yashil" xonalar yaratishga, jamoat inter`yerlarida tabiat aksentlarining garmonik uyg`unligiga kuchliroq urg`u bermoqda . Yashil rangning o`zi ofis mebellarini bezatishda oynali g`ovlar ortida butun oronjeriyalar ko`rinishda qiziqarli topilma sifatida e`tirof etilmoqda. Shunday qilib, komfort faqatgina kelib ketuvchilar va mijozlar uchungina emas, balki bank xodimlari uchun ham yaratilmoqda. Dizayn yechimining asosiy topshirig`i mijazlar uchun qulay, yoqimli psixologik atmosfera zonasini yaratish hisoblanmoqda.

Kuchli moliyaviy raqobatbardoshlik bozor sharoitida banklar turli imtiyozli pul operatsiyalarini taklif etayotgan bir paytda mijozlar banklar, ofislarda o`zini qanday his etishi eng asosiy masalalardan hisoblanadi.

Zonalashtirish g`oyasi va banklarda oqimini oqilona taqsimlash, kelib ketuvchilar va mijozlarda emotsional ko`tarinkilik holatini yengillikni va nihoyatda yaxshi kayfiyatni yarata olishi lozim. Inter`yerlarni bezatishning dizayn g`oyasi bank, bank ofislari umumiy konsepsiyasi, ma`lum ranglar, mebel va shu kabilar majmuasidan kelib chiqadi.

Amerika banklari mijozlar uchun tezlikda moliyaviy yordam ko`rsatishga mo`ljallangan. Ko`pchilik masalalar telefon orqali amalga oshiriladi. Shu sababli bank binosi interyerlarga ko`p e`tibor qaratilmasdan, bu xonalar iqtisodli bo`lishiga

ko`proq e`tibor qaratiladi. Bunday banklar uchun resepshen joyi, ofis xonalar aro va ishonchli safe-zonalari yetarlidir. Yevropa dizaynerlari esa bu masalalarda boshqacha yondashmoqda. Ular uchun bank obrazi dizayni bu ekslyuziv ish hisoblanib, har bir buyurtmachi uchun qimmatli va sifatli materiallarni qo`llagan holda individual yechimlar yaratilmoqda.

Rang to`g`risida

Ma`lumki, rang bizning hissiyot va kayfiyatimizga ta`sir etadi. Shu sababli, inter`yerni bezatishda eng ematsional element bu devorlar hisoblanadi. Rang tanlashda faqatgina rangning sifatlilik xarakteristikasi emas, balki rangning to`g`ri tanlanishi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, ko`k rang insonlar tomonidan sovuqlik, qizil rang issiqlik , sariq esa nur taratuvchi sifatida qabul qilinadi. Biroq har bir insonning individual rang farqlanishidan qatiy nazar, ko`pchilik bir xil qabul qiladigan rang zonalarining elementar ahamiyatini sanab o`tish zarur.

Sariq rang nur, ilohiy energiya va quyoshni eslatadi. U inter`yerni keng qilib ko`rsatadi. Erkinlik hissini uyg`otib, insonlarga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Zarg`aldoq rang- hohish, hushchaqchaqlik, rohat, energiya va xursandlikka yetaklaydi. U inter`yerga dinamika va faollik baxsh etadi. Psixologik jihatdan qiziqarli bo`lib, kengaytirish, illiqlik , kuchli va optimallikni beradi.

Malla rang-yer, daraxt sifatida assatsiyalanadi. U inter`yerda illiqlik va himoyalanganlik hissini beradi. Uning turli daarajadagi tuslari insonlarga ijobiy ta`sir etadi.

Qizil rang –jazirama issiqlik, xavf xavotir, to`ntarish ,iroda, hukmronlik va sharaf timsollarini bildiradi. Inter`yerda yaqinlashuvchi, faol va dinamik, jo`shqiklik va jarangdorlikka chaqiruvchi hisoblanadi. Ko`k rang suv, havo ranggi ishonchlilik, muhimlik va tinchlik hisini beradi. U doimiylik va xotirjamlik, ruhiy tetiklik va ratsionatizmga chaqiradi. Och havorang tuslar inter`yerlar fazoni kengaytirib, xonaga yengillik va havodorroq qilib ko`rsatishga imkon beradi.

Yashil rang bu salomatlik, energiya, minatdorlik, ishonchni bildiradi. U yaratish, tinchlantiruvchi, shuningdek himoyalanganlik va uyg`unlik hissini beradi.

Kulrang–ishchanlik,quruqlik, befarqlik, yashirinlik bilan assastyatsiyalanadi. U rang xonada turg`unlik, shuningdek kontrastni yumshatadi. Kulrang yorqin ranglar pushti rang, binafsha rang va boshqa ranglar bilan uyg`unlikda qo`llash yaxshi yechimlarni yaratish imkonini beradi. Qora rang –qo`rqinch, qorong`ulikni bildiradi. U tantanavorlik, yopiqlik, qattiq qo`llik, sirlik timsoli hisoblanadi. Xonada visual og`irlik, massivlik chuqurlik va qisqarish effektini beradi.

Metall ranglar –material xususiyatini belgilab beruv ranglar sirasiga kiradi. Rang hissasiga kiradi. Rang hissasiga qo`shimcha ma`naviy mazmun beradi. Shu sababli qimmatlilik, oliy janoblilik kishini to`ydiradi. Misol uchun kumush rang hosil bo`lgan kulrang statik , neytral xarakterga elegantlik, ulug`vorlik sifatlari qo`shiladi. Tilla rang sariq rang holatida ko`rinsada u ham ulug`vorlik sifatiga ega bo`ladi. Retsepti-kotiblar va ofis menedjerlar ishi samaradorligini ta`minlash uchun professional jihozlangan retsepsiya zarur bo`ladi. U qanchalik funksional va samarali bo`lsa ,kompaniya haqida birinchi ta`surot shunchalik yaxshi bo`ladi. O`z biznesingiz mohiyatini aks ettirishda retsepsiya konstruksiyasi, qurilish materiallari va asosiy elementlar rang echimini muhim o`rin tutadi. Zamonaviy rahbar kabineti har bir elementning funksional asoslanganligi bilan xarakterlanadi. Bunda ishdan chalg`ituvchi hech bir ortiqcha narsaning bo`lmasligi, inson maksimal samaradorlikka yo`naltiradi.

Mebel va jihozlarga qo`yiladigan asosiy mezonlar : funksionallik, komfortlilik, zamonaviy tashqi ko`rinish.

Jamoat binolari inter`yerlari estetik funksiyani bajarish bilan birgalikda bir nechta vazifalarni ya`ni xodimlar ishlashi sifatini oshirish, mijozlar va sheriklarni jalb etish, kompaniya nufuzi haqida ma`lumat berish, imidj yaratishni bajaradi.

“Biznes inter`yerlari” dizayni birinchi navbatda uslub va qulaylik hisoblanadi. Chunki inter`yer qulaylik va funksionalligi kompaniya xodimlarining o`z vazifalarini sifatli bajarish va ishning samaradorligi o`z ta`sirini ko`rsatadi. Bundan tashqari inter`yer dizayni uslubi jihozlar va bo`lg`usi sheriklarning e`tiborini jalb etishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, XX asrda Arxitekturadan dizayn alohida bo`lim bo`lib ajralib chiqdi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi o`zgarishlir va ehtiyojlar dizayn sohasining paydo bo`lishi va rivojlanishiga olib keldi. Hozirgi kunda “dizayn”bu “loyihalash” degan ma`nosini anglatadi. Uning vazifasi: bizlarni o`rab turgan moddiy narsalarni loyihalashdan iboratdir.

Dizayner-injener-rassom, inson kundalik hayotida nimalar bilan tuqnashib kelsa san`at predmeti.

Stil arxitekturada alohida o`rin egallaydi. U topologik, konstruktiv va badiiy faoliyatining majmuidan iboratdir. Bu esa evalyutsion taraqqiyotini belgilaydi.

Shunday qilib, banklarning ichki muhitini zamonaviy, har tomonlama chiroyli, ko`rkam va qulay, qiziqarli qilib bezash darkor. Bulardan tashqari bankdagi jihozlar ham interyerga mos bo`lishi kerak.Uning dizayni doimo insonni o`ziga jalb etishi kerakdir.

Konstruktiv qism

Bitiruv malakaviy ishi “Beymen” firmasini minibank uchun rekonstruksiyasi yechimiga bag`ishlangan. Bino yertula va ikki qavatli binodan iborat bo`lib 22.5*18 m o`lchamga ega. Yer to`la qismi 17.2*9.0 m o`lchamga ega. Qurilish hududi Samarqand shahri . Bu hudud uchun yunparning qiymati qo`yiladi.

Qor yuni 0.5 kH/m²

Shamol yuni 0.38 kH/m²

Yer to`laning chuqurligi 2.8 m o`lchamga ega. Bino xonalarning eksplikatisiyasi me`moray chizmalarga keltirilgan. Binoning asosiy qismi hisoblangan 1-qavati 3 ta ravoqdan (6m) iborat bo`lib, temir-beton yopma bilan yopilgan. Devorlar belgilangan Davlat standartida g`ish materiallardan bajarilgan.

Binoda foydalanilgan konstruksiyalarning asosiy xususiyatlari haqidagi ma`lumotlarni keltiramiz. Foydalanilgan beton amizotrop material bo`lib, uning mustahkamligi bo`lovchi va to`diruvchining turi, va suv va sement nisbati (w/c), tayyorlash usuli,qotish sharoiti, binoning yoshi va namunalarining shakli va

o`lchamlariga bog`liq. Ma`lumki beton qotishmasida w/c qancha kichik bo`lsa, betonning mustahkamligi shuncha yuqori bo`ladi va sement sarfi kam bo`ladi.

Ko`pchilik hollarda me`moray binolarda qo`llanilgan betonlarning mustahkamligi uning normative kubin mustahkamligiga bog`liq va bu ko`rsatgich quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Rn=Rm(1-1.64v)$$

Bu yerda, R=betonning o`rtacha static mustahkamligi. V=beton mustahkamligining o`zgaruvchanlik konfitsenti bo`lib, og`ir va yengil betonlar uchun 0.135 ga teng Shu ko`p hollarda, hisob ishlariga betonning siqilish mustahkamligibo`yicha aniqlash muhim ahamiyatga ega. Buning tajriba sharoitida qirralari 15sm bo`lgan kubinni 28 sutka mobaynida 20±2 haroratda
95% namlikda saqlangandan keyin sinash orqali amalgam oshiriladi.
Bu ko`rsatgich quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$R=F_M/ A_{b*.tot}$$

Bu yerda, F-tuzuvchi kuch, A kubikning ko`ndalang kisim yuzasi.

Loyihalangan binada B30 markali betondan foydalanilgan. Bu beltonning savuqbardoshlik bo`yicha markasi F 75 ga teng. Suv o`tkazmaslik bo`yicha markasi ega. W 6 ga teng. Foydalanilgan beton (mexanik) 3600kt/m zichlikka ega. Bu betonning mexanik mustahkamligi quyidagi qiymatga ega.

1. Prizmalarni siqqanda (0.7…0.8) R
2. Etilimdagi mustahkamligi (0.1…0.18) R
3. Yoritishda esa (0.1…0.2) R gat eng deb hosil qilinadi.

Foydalanilgan beton B 30 quyidagi ko`rsatgichlarga ega.

R_{b*n}=22.0 МПа

R_b=17.0 МПа

R_{b*t}=.1,20 МПа

R_{b*t*n}=1,80 МПа

Chegaraviy holatlarning birinchi guruhi uchun betonning hisobiy qattiqligi R_b va R_{b*t} ning ishonchlilik darajasi 0.997 ga teng. Bu esa siqilishda $R_b=R_{b*t}/\alpha_{b*t}$cho`zilishda esa $R_{b*t}=R_{b*t*n}/\alpha_{b*t}$Bu koeffitsientlar cho`zilishda $\alpha_{b*t}=1.5$ ga siqilishda $\alpha_{b*c}=1.3$ ga teng.

Binoni loyihalashda sterjenli va simli armaturalardan foydalanilgan.Sirtining shakliga qarab esa tekis va davriy profilli armaturalar ishlatilgan. Binoda foydalanilgan temir-beton elementlar 2.5% miqdoriga armaturalangan va A-2 va A-3 sinfiga mos qizdirib prakatlangan davriy profilli armaturalar ishlatilgan. Bu armaturalarda uglevod miqdori 0.2-0.4% tashkil etadi. Chunki uglevod oshishi po`latning mustahkamligini oshiga va payvandlanuvchanligi hamda qayishqoqligini kamayishiga olib keladi.Shuning uchun bu kamchiliklar armaturalarni tanlash, 800°-900° c ga qadar qizdirish va keskin savutish orqali yana 300°-400° ga qizdirib asta sovutish orqali amalgam oshiriladi.

KMQ larida A-I sinfidagi armaturaning uzishidagi nisbiy uzatishi 25% bo`lsa, A-II uchun bu ko`rsatma 19% ga teng deb belgilangan. Loyihalashgan bino o`lchamlari b*h=6*1.5 m bo`lgan 220 mm qalinlikdagi ko`p teshikli plita bilan yopilgan.

Foydalanilgan temir beton yopma seysmik hududlar uchun mo`ljallangan bo`lib, yukning haqiqiy qiymati va normativ (me`yoriy qiymati) orasidagi farqni e`tiborga oluvchi ishonchlilik koeffisienti α yordamida hisobga olingan . Bu quyidagicha ko`rinishga ega $q=g_n*\alpha_f$

Shu bilan birga yopmaga ta`sir qiladigan yuklar to`plami 1 m² maydon uchun mavjud elementlarning qalinligi va zichligini e`tiborga olgan holda aniqlangan.

Ma`lumki ko`rinish rayoni seyesmik hudud bo`lganligi sababi, foydalanilgan konstruksiyalar bo`ylama va ko`ndalang yo`nalishda bir-biriga mustahkam bo`g`langan holda biriktirilgan. Shunday qilib, binoni zil-zila kuchlarini bir butun fazoviy konstruksiya sifatida qabul qilishi ta`minlangan. Buning uchun quyidagi antseysik choralar ko`zda tutilgan va bajarilgan. Binoning ±0.00 belgisi va 3.2 m belgilarida perimitz bo`ylab antiseysmik kamarlar joylash tirilgan. Plitalar bir-

biriga va devorlar puxta biriktirilgan. Devor burchaklari va kesishuv joylari armatura sim bilan ta`minlangan.

Binoning fazoviy biriktirishi mavjud yopmalarning ishi tufayli ta`minlanadi. Yopmalar gorizontal diafatma rolini o`ynab, seyismik kuchlarni yuk ko`taruvchi konstruksiyalarga ta`minlaydi.

Seysmik mustahkamlik ko`p jihatidagi plitalarning devorga joylashtirilishiga bog`liq.

Bo`ylama va ko`ndalang devorlarning tutashuv yerlari quyidagicha armaturalangan.

Binoning devorlarining o`zaro kesishuvini va mustahkamligi ta`minlashda yuqorida keltirilgan sil turlardan tashqari temir -beton antiseysmik kamarlardan foydalanish keng joriy etilgan. Bu kamarlar barcha bo`ylama va ko`ndalang devorlar bo`ylab o`tkazilgan. Bu kamarlar bino qavatining ishchi balandligiga yotqizilgan. Bu orqali devor va yopmalar chambarchas bog`lanib yagona yopiq sistema tashkil etadi.

Kamarlarning balandligi yopma qalinligiga keng bo`lib 15 sm dank am bo`lmasligi kerak. Kamarlarning armaturalari kesishib nuqtalarida qo`shimcha armaturalar bilan ta`minlanadi. Ko`p hollarda murakkab geometrik ko`rinish binolarning burchaklari ham bog`lama kamarlar bilan ta`minlanadi. Kamarlarni bajarishda B-12.5 dan kam bo`lmagan oston 8-10 mmga teng A-I yoki A-II tipdagi armaturadan foydalanilgan. Bino burchaklarida o`rnatilgan temir-beton o`zak armaturalari seysmik kamar armaturalari bilan mustahkam biriktirilgan. Bu esa binoning mustahkamligi, bikirligi va boshqa ta`sirlarga chidamliligini ta`minlaydi.

Qisqacha qilib aytganda, konstruksiya qismi har tomonlama kuchli, baquvvat va to`g`rib o`lishi kerak. Binolar tabiiy ofatlarga ham bardosh bo`lishi kerakdir. Konstruksiya qismi binoning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Undagi har 1 ta detall va yechimlar, o`lchamlar to`g`ri va aniq yechilishi zarur. Bundan tashqari konstruksiya qismida hozirgi zamonga ham qarab ishlov bersa ham bo`ladi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi

Yong`in xavfsizligi

Hayotiy faoliyat xavfsizligining maqsadi –mehnat xavfsizligini chuqur o`rganish, bilish , tashviqot qilish va odamlarni xavf-xatardan himoya qilish masalalari asosida tarbiyalashdir. Buning ilmiy zamin esa ishlab chiqarishda shikastlansh, kasbiy kasalliklar, yong`in va halokatlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish, mehnat jarayonida qo`llaniladigan asbob –anjomlarning xavfsizlik va zararlilik darajasini o`rganish, paxta, ipak va yengil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan og`ir hamda sermehnat ishlarni mexanizasiyalash va avtomatlashtirishni ko`zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholashdir. Korxonalarda yog`in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari ishlatilmoqda.O`t o`chirishning mexanizasiyalashgan va avtomatlashgan tizimlari tobora kengroq qo`llanilmoqda. Yong`in chiqishining oldini olish va o`t o`chirishda asosiy mas`uliyat kishilar zimmasiga tushishini hamda ularning yong`inni o`chirish texnikasining barcha talablarini to`liq bajarilishiga bog`liq ekanligini unutmaslik kerak.

Respublikamizning har bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko`z qorachig`iday saqlashi, asrab avaylashi, uni boyitish haqida qayg`urishi kerak. Yong`in chiqqan taqdirda ularni o`chirishda faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylash, uni saqlash borasida targ`ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yong`inga qarshi kurash boshqarmasining vazifasi davlat mulkini yong`indan saqlashdan iborat, shu bilan birga yong`in nazorati tashkilotlari tashkiliy, nazorat va ma`muriy ishlarni amalga oshiradi. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi.

-hamma idoralar, korxonalar va alohida shaxslar uchun majburiy bo`lgan yong`in muhofazasiga doir qoidalar, miyorlar, yo`riqnomalar ishlab chiqish va ularni chop etish;

-sanoat, fuqaro binolari va inshootlarini,aholi punktlarini loyihalash, qurishda yong`in xavfsizligi qoidalari va me`yorlarining bajarilishi tekshirish;

-hamma tashkilotlar, muassasalar, korxonalardagi o`t o`chirish bo`limmalarning shayligini va o`t o`chirish vositalarining sozligini qattiq nazorat qilish hamda tekshirish. Ishchi xizmatchilar o`z ish o`rnidagi yoki ular o`zi ishlaydigan bo`linmadagi yong`in xavfsizligi talablarini yaxshi bilishlari va ulatga qatiy amal qilishlari, o`t o`chirish vositalaridan foydalana olishlari, mehnat hamda texnologiya intizomiga qat`iy rioya qilishlari: yong`in hamda portlash jihatidan xavfli modda va ashyolarni ishlatishni bilishlari zarur.

Kutilmaganda va birdan yuzaga kelgan xavfli vaziyatlarda korxonadan barcha ishchilarni tezda va xavfsiz evakuatsiya qilish talab qilinadi.

Eng uzoq ish joylaridan evakuatsiya eshigigacha bo`lgan masofa ishlab chiqarishning toifasiga, binoning o`tga chidamlilik darajasiga va uning necha qavatli ekanligiga bo`liq. Vestibul, zinapoyalarning yoki tashqariga olib chiqadigan koridorning xona eshigidan uzunligi 25 m dan oshmasligi kerak. Koridorlardan kamida 2ta evakuatsiya yo`li bo`lmog`i kerak. Evakuatsiya uchun xizmat qiladigan yo`laklar, zinapoya maydonchalarining kengligi hisoblab topiladi, lekin ular bir metrdan, koridorlarning kengligi esa 1.4m dan kam bo`lmasligi kerak. Marshlarning eni 1.05-2.4m, eshiklarning eni 0.8-2.4m bo`lib , binodan tashqariga ochilishi kerak.Evakuatsiya zinapoyalari kishilarni xavfsizlik evakuatsiya qilishini uning tartibli harakatini yong`in vaqtida o`t o`chiruvchi qismlarning erkin harakat qila olishi ta`minlashi kerak. Bu maqsadda zinapoya kataklari, odatda atrofi yopiq va tabiiy yorug`lik tushadigan qilib hamda yonmaydigan qurilish materiallaridan quriladi.

Yong`in xavfsizlik burchagi

Bu burchak –yong`in bo`lgan paytda, uni oldini olish uchun kerakli asbob anjamlar turadigan joydir. U burchak o`ziga xos bo`ladi, yani u o`zining ichiga o`t o`chirgich , shlang, chelak, ketmon, bolta va hokozo. O`z ichiga oladi.Bulardan tashqari yong`in haqida xabar berish, aloqa vositalari ham bo`ladi. Ular quyidagilar:

Tol-10/100 nurli optic signal stansiyasi,elektr yong`in signalizasiyasi va hokozolar. Ulardan qanday foydalanish kerak bo`lganini; biz yuqorida aytib o`tdik.

Elektr xavfsizligi

Tokdan saqlanish uchun uskunalarning tok yuruvchi qismlariga yaqin kelmaslik, qo`ltegizmaslik, bexosdan tegib ketmaslik kerak. Qobiq va boshqa metal qismlarda tok paydo bo`lganda xavfning oldini olishga, past kuchlanishga ishlash, ikki qayta ihotalash, yer ulash nol soniga ulash himoyalovchi o`chirib qo`ygichlarni qo`llash bilan erishiladi. Elektr uskunalarining tok yuruvchi qismlariga bexosdan tegib ketmaslik uchun ularni ihotalash, qo`l yetmaydigan balandlikka o`rnatish, to`siqlar bilan ta`minlash va boshqa tadbirlarni qo`llash kerak.Bundan tashqari, o`ta xavfli sharoitlarda, metall idishlarning ichida, tok o`tkazuvchi, polda o`tirib yoki yotib ishlayotganda qo`l asboblari uchun past kuchlanish 12 V qabul qilinadi. Barcha bino va inshootlar yashindan himoyalanish darajasiga ko`ra 3 toifaga ajratiladi. Ularning toifasi yong`in va portlash jihatdan xavfliligi, o`tga chidamliligi shuningdek, ular joylashgan geografik hududda yashin ko`p yoki kam bo`lishiga qarab belgilanadi.Bu binolarda yonuvchi qattiq va suyuq moddalar chang bo`ladi bularga ochiq omborxonalar, tutun quvurlari suv minoralari 15 mdan baland minoralar jamoat va turar joy binolari , kasalxonalar bolalar muassasalari kinoteatrlar kiradi.

Ite`molchilarning elektr qurilmalarini ishlatish qoidalarida qurilmalarga xizmat ko`rsatuvchi hamma kishilarga elktr xavfsizligining asosiy qoidalarini o`qitish kerak.

Turli sinflardagi ob`ektlar uchun yashindan himoyalagich toifasi.

T/r	Bino va inshootlar	Ob`ekt joylashgan yeri	Yashindan himoyalagichning toifasi
1.	V-I va V-II, B-I a V-1B, V-IIa sinfdagi binolar. II-I,II-II,va II-IIa	O`zbtristonnig butun hududida.Bir yil mobaynida o`rtacha 10 soat va	I II

2. 3.	B-Ig , II-III sinflardagi tashqi texnologik qurilmalar va ochiq omborxonalar O`ta chidamlilik darajasi III-IV-V-bo`lgan, portlash va yong`in jihatidan xavflilar qatoriga kiritiladigan ishlab chiqarilishlari bo`lmagan bin va inshootlar.	bundan ko`p yashin bo`ladigan yerlarda. Shuning o`zi 1 yil mobaynida o`rtacha 20 soat va bundan ko`p. O`zbekistonning butun hududida shuning o`zi 1 yil mobaynida o`rtacha 20 soat va bundan ko`p.  Shuning o`zi	II III III

Qoravullar va videokameralar

Xavfsizlik joyi, xonasi xavfsizlik sistemasining qabul-tekshiruv priborlari, yong`in va turli hodisalar signallari, hamda vidiotekshiruv monitori va boshqa tuzilmalar bilan ta`minlangan bo`lishi kerak. Xavfsizlik joyi uchun moslashgan bo`lishi shart.

Asosiy kirish yo`lagida xavfsizlik postini joylashtirish zarur. Agar eshiklar xavfsizlik posti (qaravul) turgan joydan ochilsa, unda qoravul turgan joyda oynali ko`rinish joyi bo`lishi shart, hujjatlarni berish uchun loyihalashtirish vazifasiga asosan binoda zavodda ishlab chiqarilgan avtomat kabinalar joylashtiriladi, hamda metalni aniqlovchi stasionarlar joylashtiriladi.

Qurol-aslahalarni saqlash xonasi , qurolni zaryadlashtirish xonasi ham haqiqiy norma bilan bo`lishi kerak. Instruksiyasiga asosan mohiyatlashtirishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak binoning o`zi ham turli xil xavf-xatardan himoyalangan bo`lsa, HFX ga to`la javob bersa, bank xodimlarining shaxsiy xavfsizligi ham bank axborotining himoyalanganlik darajasi bilan bevosita

bo`liqdir. Bank yaxshi qo`riqlansa, ish joylarida tartib o`rnatib axborotni himoya qilish ishonchli tizim joriy etilgan bo`lsa, bank faoliyatiga hech qanday xavf- xatar ham bo`lmaydi.

Ekologiya qismi

Loyiha qilinayotgan ob`ekt quriladigan joyning fiziko-geografik va iqlim sharoitlari. Loyiha qilinayotgan ob`ekt “gagarina ko`chasidagi maskani (bino)” “Beynun” firmasini minibankka rekonstruksiya qilishdir. Bu binoning oldida turli xil jamoat binolari bor. Iqlim sharoiti keskin kontinental, quruq iqlim Bulutli kunlar ham bo`ladi. Tekisliklarda qish iliq. Yanvarning o`rtacha t-ri da 2° tog`larda -4.8. Yozi issiq . Iyulning o`rtacha t-rasi 29.9°-27.8°, eng past t-ra 32° eng yuqori temperature 42°. O`rtacha yillik yog`in 282-459 mm . Yog`inning 80% qish va bahorda yog`adi.Qor 16-20 kungina saqlanadi. Atmosfera kechadigan fizik-kimyoviy jarayonlar. Bir qator mikrogazlar yerning issiqlik muvozanati o`zgarishiga muhim rol o`ynaydi va yer yuzida asta-sekin haroratni oshib borishini xarakterlovchi “issiqxona effekti” deb ataluvchi hodisani sodir qiladi. Bu hodisani sodir qiladiasosiy o`rinni egallovchi gazlar yorug`lik nurlarini o`zidan o`tkazib yuborsada, infraqizil nurlari tutib qoladi. . Quyosh nuri Atmosfera orqali o`tib, yerning yuza qatlamini isitadi va yer o`zidan issiqlik hamda infra qizil nurlarni qaytaradi. Atmosferadagi issiqlikni hosil qiluvchi gazlar miqdorining o`zgarmasligi natijasida yerning issiqlik balansi issiqlik balansi doimiydir. Issiqlikhosil qiluvchi gazlardan 3 tasi, ya`ni uglerod qo`sh, metan va suv bug`lari eng ko`p ahamiyat kasb etadi. Chunki, aynan ularning konsentrasiyalari biosferaga antropogen ta`sirlar natijasida tez oshib boradi. Issiqlik nurlarining “Soya solish” xususiyati metan va ayniqsa, azot gemoksidi molekulalarida yuqori, ammo uglerod qo`sh oksidi molekulasida bu xususiyat nisbatan past. Uglerod qo`sh oksidi atmosfera organic yonilg`ilarni –neft, gaz, ko`mir, o`tin va boshqa yonilg`ilarni yonishi hamda organizimlarning nafas olishi hisobiga chiqariladi. Bunday mikrogazlar oqimi bo`lib, Donyo okeanlari ham xizmat qiladi. Dunyo okeanlari suvining tubida yotqiziqlar ko`rinishida to`planadigan korbonatlar shular

jumlasidandir. Uglerod qo`sh oksidining katta qismi fotosintez jarayonida hosil bo`ladi va yangi hosil bo`lgan organic birikmalar tarkibiga kirib birikadi. Hududning ekologik holati va mavjud ta`sir etuvchi manbalar. Atmosferaning ifloslanishi deb, bir so`z bilan aytganda havo tarkibiga begona moddalar va qo`shimchalarni me`yoridan ortiq to`planishiga aytiladi. Havoning ifloslanishi tabiiy yoki sun`iiy (antropogen) bo`lishi mumkin.

Tabiiy ifloslanish. Atmosferada doimo ma`lum miqdorda changlar bo`ladi. U tabiatda sodir bo`ladigan tabiiy hodisalar natijasida hosil bo`ladi. Bunday changlarni 3 turga; mineral, organic va koinot changlariga ajratish mumkin.

Atmosfera havosining ifloslanishi muammosi butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Bu muammo ayniqsa, sanoati rivijlangan mamlakatlarda eng o`tkir muammolardan bo`lib tiribdi.

Atmosfera havoni bitmas tuganmas resurslar kategoriyasiga kiradi. Ammo insonlarning xo`jalik faoliyati atmosferaga ta`sir ko`rsatadi va uning tarkibiga o`zgartirib yuboradi.Transport vositalari soning yildan-yilga ko`payib botishi, turli yonilg`ilardan foydalanish, shuningdek o`rmonlarning kamayishi, okean suvlarining ifloslanishi, yadro qurollarining portlanishi natijasida atmosferadagi kislorod miqdori keskin kamayib, karbonat angridi va azot oksidlar imiqdorining oshishi kutilmoqda. Bularning ba`zisini oldini olish zarur. Atmosferani ifloslantirishda transport vositalarining “hissasi” respuplikamiz hududida yuqorida (yuqoriligicha qolmoqda.) Respublika bo`yicha bu ko`rsatgich 35% ni, ayrim shaharlarda esa 80% ni tashkil etadi.

Hududning tuprog`I yer osti va yer usti suv resurslari.Yerning tosh o`rami sathining tashqi tuzilishiga relef deyiladi. Relefning shakllanishi uning yoshini, morfologik tuzilishini , o`zgarishi va tarqalishi qonuniyatlarini gemorfologiya fani o`rganadi. Yer sathining tuzilishi, tarixiy taraqqiyoti, unda hayotning rivojlanishi asosan yerning ichki qismida vujudga keladigan tektonik jarayonlarga va iqlimi bog`liqdir. Tuproq qatlamining qalinligi taxminan 1-3 metr bo`lib, u A,V,S qavatlardan iborat bo`ladi. Yuqorida joylashgan chirindi boy bo`lgan eng unumdor qismi A-gumush qavat hisoblanadi. Uning ostida tepadan yuvilib tushgan karbonat

tuzli V-illyuvial qavat jaylashgan bo`lib, 1.5-2 metr chuqurlikkacha kam o`zgargan. Eng quyida C-ona jinsli qavat yotadi. Tuproq turlari qutblardan ekvatorga hamda tekisliklardan tog`larga qarab iqlim o`zgarishi bilan qonuniy ravishda o`zgarib boradi. Suv tabiatning qimmatbaho resurslaridan biridir. U biosferaning mavjudligini ta`minlovchi moddalar almashinishi jarayonlarida o`ta muhim rol o`ynaydi. Yer osti suvlarini ichimlik uchun ishlatish mumkin. Yer osti suvlari yer usti suvlari va yog`in- sochin suvlarining yerning ustki suv o`tkazuvchan qavatidan filtirlanishi natijasida yerning quyi suv o`tkazmas qavatlarida to`planish evaziga paydo bo`ladi.

Hududning o`simlik va hayvonot dunyosi, aholi salomatligi. Yerning yuqori unumdor tuproq qismi sho`rlanmagan, kuchli eroziya kuzatilmoqda. Shu sababli har xil o`simliklarga boy. Bizning Samarqand shahrimizda hayvonot olamiga bo`lgan e`tabor va mehri juda ham katta. Xulosa qilib aytganda, Loyiha qilinayotgan ob`ekt tashkil etiladigan joining fizik- geografik va iqlim sharoitlari, tuprog`I, yer ostki va yerustki suv havzalari, o`simlik va hayvonot dunyosi, mavjud ta`sir etuvchi omillar o`rganilib chiqiladi. Umuman olganda ushbu joyda, yanada landshaft qismini chiroyli qilsak, bu binoning oldi va uning atrofidagi jamoat binolari uchun kam ko`rkiga yanada ko`rk qo`shadi. Biz dizaynerlarning ishimiz shu berilgan joyni har tomonlama go`zal va yanada ko`rkam qilishdan iboratdir. Bizlar o`zimizning mehnatimizning orqali, o`z hissamizni qo`shishimiz darkor.

xulosa

Xulosa qilib aytganda, Arxitekturaning mohiyati ijodiy, estetik, badiiy faoliyat bo`lib, arxitektorning konstruktiv texnik va texnologik masalalarini yechish asosiy maqsad hisoblanadi. Arxitektura va iqtisodnini o`zaro mahsuldor munosabati iqtisodiy strategic vazifalarni capital qurilish vazifalarini hal etishda katta rol o`ynaydi.

Hozirgi kunda “dizayn” va”loyihalash” degan ma`nosini anglatadi. Uning vazifasi: bizlarni o`rab turgan moddiy narsalarni loyihalashdan iboratdir. Stil arxitekturada alohida o`rin egallaydi.U topologic, konstruktiv va badiiy faoliyatining majmuidan iboratdir. Bu esa evalyutsion taraqqiyotini

belgilaydi.Bulardan tashqari qurilayotgan bino yoki uni rekonstruksiya qilayotgan bo`lsa, u binong konstruksiyasi va hayotiy faoliyati xavfsizligiga, ekalogiyasiga to`la javob berishi kerak.

Shunday qilib, Bank inter`yeri hozirgi kunning talabiga javob berishi karak. Inter`yerdagi ranglar bir-biriga mos tushishi, mebel jihozlarining qulayligi va bu binoga kirgan paytda o`ziga xos xarakterga ega bo`lishi darkor. Bank xodimlari, mijoz uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Umuman olganda o`ziga xos bir atmosferaga ega bo`lishi zarur. Doimo xodimlar va mijozlar uchun, ularning kayfiyatiga ta`sir qilinadigan, o`ziga jalb etadigan ichki muhit bo`lishi kerak.

Adabiyotlar ro`yxati

1.Karimov I.A. “2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko`taradigan yil bo`ladi” Toshkent 2012-yil.

2. Jurnal: Bozor,pul va kredit. 1-yanvar 2012-yildagi sonida.

3. Jurnal: Bozor, pul va kredit. 7-iyul 2001-yildagi sonida.

5. Jurnal: Bozor, pul va kredit. Dekabr oyining 1998-yildagi sonida.

6. Inter`yer saytlari: Google, Yandex, Ziyonet va boshqalar.

7. KMQ 2.01.07-96 Yuklar va t a`sirlar. Toshkent 1996-yil.

8. KMQ 2.01.03-96 Seysmik hududlarda.Toshkent 1996-yil.

9. KMQ 2.03.01-96 Beton va temir-beton konstruksiyalari. Toshkent .1996-yil.

10.O.Qudratov, t.G`aniyev. Mehnat nashriyoti. 2004-yil.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi ma`ruzalar matni.

11.Internet saytlaridan olingan.